

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Tarix fakulteti

«Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi» bakalavr
ta'lim yo'nalishi 4^B kurs talabasi Matyakubov O'ktamjonning
«Milliy g'oya targ'iboti texnologiyasi» fanidan

KURS ISHI



Mavzu: Rivojlangan davlatlarning targ'ibot tizimi

Bajaruvchi:

Matyakubov O'.

Qabullovchi:

Abatov A.

NUKUS – 2016

MAVZU: Rivojlangan davlatlarning targ'ibot tizimi.

Kirish.

Asosiy qism.

I. Bob Chet el davlatlarining yangi pedagogik texnologiyalari.

1.1. Rivojlangan davlatlarning targ'ibot tizimida ped-texnologiyalarning ro'li va uning ahamiyati.

1.2. Targ'ibot samaradorligini taminlovchi asosiy omillar.

II. Bob O'zbekistonda mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishning mazmun mohiyati.

2.1. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan isloxlarga dunyo hamjamiyatining qiziqishini ortib borishi.

2.2. Yoshlarning axloqiy immunitetini shakllantirishda targ'ibot texnologiyalarning ro'li va ahamiyati.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish.

Hozirgi zamonda mafkura maydoniga yangi texnologiyalarni tobora takomillashib kirib ketayotganligini, undan sog'lom va nosog'lom mahsadlarda foydalanishga urinishlar davom etayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Bu xususan O'zbekiston jamiyatini ham milliy g'oya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarga, uning samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalarga tayanib ish ko'rishga undamoqda. Uni hisobga olish muhim g'oyaviy - ma'naviy masalaga aylandi, hamda O'zbekistonni mustaqil tarraqqiyot yo'lidan rivojlanishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Kurs ishini maqsadi va vazifasi; Talabalarga tadqiqot metodlari uni amalga oshirish yo'llari sohalari haqida tushuntirish. Tadqiqot metodlar o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishga asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabanning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;
- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishin ta'minlashi;
- o'quvchi - talabanning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;
- pedagog va o'quvchi-talabanning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o`qituvchi va o`quvchi-talabanning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog`liq, ya`ni o`qitish jarayonida, maqsad bo`yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo`llaniladigan har-bir ta`lim texnologiyasi o`qituvchi va o`quvchi o`rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkilasi ijobiy natijaga erisha olsa, o`quv jarayonida o`quvchi - talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o`zlari xulosa qila olsalar, o`zlariga, guruxga, gurux esa ularga baho bera olsa, o`qituvchi esa ularning bunday faoliyatlarni uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha ana shu, o`qitish jarayonining asosi hisoblanadi

Kurs ishining dolzarbligi; Ta`lim tizimi oldiga barkamol shaxsni shakllantirish, ta`lim soxasi bilan mexnat bozori urtasidagi nomutanosiblikni kiskartirish xamda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabi yangi, dolzarb vazifalar kuyilmokda.

Mazkur vazifalar pedagogik texnologiya nazariyasini yaratish va ta`lim jaraenini puxta loyixalashga erishish zaruriyatidan kelib chikadi. Kayd etilganidek, pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini ishlab chikish dolzarb vazifa sanalib, ta`lim texnologiyalarini yaratish muammolari buyicha olib boriladigan umumiy va Amaliy tadbirkorlik uchun keng yul bergan xolda Ushbu nazariya mohiyatini tulakonli aks ettiruvchi terminologiyani shakllantirishni takozo etadi.

Kurs ishining obekti; Yoshlarni o`qitishda tadqiqot metodlari, ta`lim vositalari o`quv-uslubiy materiallar Insert jadvali, klaster, toifalash va kontseptual jadvallar, , Venna diagrammasi, SWOT - tahlil jadvali, "Nima uchun?" sxemasi, "Baliq skleti", "Piramida", diagramma muhim obekt xisoblanadi .

Kurs ishini predmeti; Mashg`ulotlar, maruza, amaliy mashg`ulotlar, suxbat va mustaqil ish baxs-munozara zamonaviy interfaol usullar bular tadqiqot metodlarini predmeti hisoblanadi.

Kurs ishining tuzilishi; Kirish, ikkita bob, to`rtta paragraf, xulosa, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yhatidan iborat.

I. Bob Chet el davlatlarining yangi pedagogik texnologiyalari.

1.1. Rivojlangan davlatlarning targ'ibot tizimida ped-texnologiyalarning ro'li.

Pedagogik texnologiyalar ham talabalar faolligining yuqori darajasini ta'minlash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi shu boisdan bu qisimda pedagogik amaliyot uchun notanish bo'lgan chet el didaktikasiga oid metodlar haqida fikr yuritiladi.

Amerikaning "Street law" (ko'cha qonuni) dasturi bugungi kunda ko'plab davlatlar tomonidan asrga olingan va ta'lim jarayoniga o'rnatib qolyapti.

Bunga sabab dasturdan o'rin olgan yuzlab o'qitish metodlarining faoligi jozibaliyligi va ta'sirchanligidir. Ular yordamida talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalash axborotlarni tanqidiy qabul qilish, jamoada ishlash o'z mavqeini mustahkamlash, fikrlarni himoya qilish, haq-huquqlarini anglab etish kabi imkoniyatlarga tezda ega bo'ladi. O'qituvchi esa didaktik jarayonda bu metodlardan oqilona foydalanmog'i mavzu bo'yicha o'quv elementlarini murakkabligi va vaqt muddatiga qarab o'zlashtirmog'i lozim. Quyida "Street law" dasturidagi bazi metodlar bilan tanishashiz.

Klaster (axborotni yoyish) usuli

Bu usulning asosiy vazifasi o'rganilayotgan ob'ekt – talabalar faoliyatini,

Pedagogik voqelikni qismlarga ajratgan holda o'zlashtirishga yo'naltiradi. Unda ko'p variantlilik asosida tushuncha va hodisalarning o'zaro ichki hamda tashqi bog'lanishlarini aniqlash ko'nikmalarini shakllantiradi, mavzu bo'yicha fikr-mulohazalarni erkinlashtirishga yordam beradi.

Mavzu bo'yicha klasterlarin tuzish, o'quv maqsadiga qarab, bosqichma-bosqich harakatlanishni taqozo etadi, ohir oqibatda yakuniy natija yangi bilimlarni o'zlashtirish, fikrlar hilma xilligini yaxlitlash asosida qo'lga kiritiladi.

Klaster usulidan foydalanish uchun uquvchilarni kichik guruhlarga (3-5) ajratish talab etiladi. Har bir guruhda mavzuga oid o`quv elementlari tanlanadi buning uchun auditoriyada darslik, o`quv qullannmalari ,ma`ruza matnlari va boshqa axborot manbalari bo`lishi lozim. O`qituvchi alohida o`quv elementlarini o`zlashtirish uchun 15-20 daqiqa vaqt ajratadi.

Klaster tuzish bosqichlari:

Auditoriya yozuv taxtasiga kichik guruhlar soniga qarab vatman (chizmachilik qog`ozi) osiladi (kalit) so`zlar o`qituvchi (ayrim hollarda talabalar) tomonidan yoziladi.

Mavzu bo`yicha o`quv elementlariga tegishli fikrlar (qonun, fakt, tezis, hodisa, jarayon, natija) aniq fe`l bilan ifodalangan holda qog`ozga yoziladi.

Asosiy tushuncha va g`oyalar o`rtasidagi aloqadorlik chizmada ko`rsatiladi.

Kichik guruhlardagi barcha o`quvchilar o`z variantlarini qog`ozga yozishadi.

Fikrlar shajarasi umumlashtiriladi va yakuniy xulosalar qayd etiladi.

O`qituvchi talabalar faoliyatini nazorat qiladi va ob`ektiv baholaydi

Misol uchun B.Blumning "O`quv maqsadi taksonomiyasi" mavzusi bo`yicha klaster tuzish ketma-ketligini keltiramiz:

Blum taksonomiyasi aniqlangan o`quv faoliyati sohalari (O`E № 1)

kognitivli; (bilish sohasi)

affektiv (hayajonli, qadriyatli) soha;

Psixomotorli sohasi;

Blum taksonomiyasini tuzishda tayaniladigan tamoyillar (O`E № 2)

amaliy, psixologik, mantiqiy ,ob`ektivlik.

Kognitiv soha bo`yicha o`quv maqsadlari toksonomiyasi (O`E № 3)

bilish, anglash, qo`llash, taxlillash, sintezlash, baholash.

Bu misolda 3 ta kalit so`z keltiriladi ular o`z navbatida tegishli o`quv elementlarini qamrab olishi o`quvchilar tomoindan aniqlanadi. Har bir o`quv elementiga oid tushunchalar mazmunan ketma-ketlik saqlangan holda vatman qog`ozga yoziladi va fikrlar yoyilmasi chizmasi yaratiladi.

Sinkveyn (axborotni yig`ish) usuli

Metodni qo'llash jarayonida o'quvchilardagi tarqoq axborotli jarayonlar asta sekin bosqicha-bosqich yo'naltirilgan jarayonga aylantirib boriladi. Ya'ni o'rganilgan bilimlarni mavzuni o'rganish davomida o'rganiladi. Muayyan voqelik to'g'risida yakdil fikrga kelinadi. Buning uchun o'quvchilarda besh imkoniyat mavjud bo'ladi ya'ni sinkveyn beshqatordan iborat o'ziga hos "oqshe'r" (qofiyasiz) bo'lib, o'rganilayotgan mavzuga oid tushunchalar (hodissa, jarayon, voqea) qat'ian ketma-ketlikda yozib chiqiladi. Sinkveyn orqali o'quvchilar o'z fikrlarini to'plash ixcham ifodalash mulohazalarni sintezlash va mavzu bo'yicha to'g'ri xulosalarni takomillashtirishga o'rganishadi.

Sinkveyn tuzish tartibi:

Birinchi qatorda mavzuga oid bosh g'oya (tayanch tushuncha) bir so'z (ot) bilan qayd etiladi.

Ikkinchi qatorda bosh g'oya ikki sifat bilan ifodalanadi.

Uchinchi qatorda mavzuga oid tushunchalar uch so'z bilan bayon qilinadi.

To'rtinchi qatorda mavzuga oid fikr (nazariya, fakt)lar tshrtta so'zdan iborat bo'lishi lozim.

Sunggi qatorga mavzu mohiyatini oydinlashtiradigan (yoki ma'no jixatidan yaqin bo'ladigan) bitta so'z yoziladi bu ketma-ketlikni quyidagi chiziqlar bo'yicha loyihalash mumkin.

1. _____ topshiriq

2. _____

3. _____

4. _____

_____ natija

Odatda sinkveyn mavzu bo'yicha biror muammoli vaziyatli echish yoki alohida o'quv elementlarini mukammallashtirishda talaba tafakkurini charxlash uchun tuziladi agar birinchi qatordagi mavzu so'z turkumi – ot orqali ifodalansa, ikkinchi qatorda topshiriqning muhim hossalarni belgilovchi bir juft sifatni o'quvchi o'ylashi ko'p variantli javoblardan eng maqulini olishi lozim.

Aqliy hujum usuli

Dars jarayonda “Aqliy hujumdan” maqsadli foydalanish ijodiy andozasiz tafakkurlashni rivojlantirish manbai hisoblanadi. Aqliy hujumni uyushtirish sodda bo`lib, undan ta`lim mazmunini o`zgartirish jarayonida, ishlab chiqarish muammolarini echimini topishda ham foydalanish mumkin. Dastlab guruh yig`ilib, ular oldiga muammo qo`yiladi. Bu muammo echimi to`g`risida ishtirokchilar o`z fikrlarini bildirishadi bu bosqichda hech kimning o`zgalar g`oyasiga hujum qilishi yoki baholashga haqqi yo`q. Demak, aqliy hujumda qisqa vaqtda o`nlab g`oyalarning yuzaga chiqish imkoniyatlari mavjud bo`ladi. Aslida g`oyalar soni maqsad emas, ular muammo echismi uchungina asos bo`ladi. Bu metodlar shartlaridan biri qatnashuvchilarning har biri tashqi ta`sirsiz faol ishtirokchi bo`lishi kerak.

Shunday qilib, aqliy hujum qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

olg`a surilgan g`oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;

ish sifatga emas, songa qaratiladi, g`oyalar qancha ko`p bo`lsa, shuncha yaxshi;

istalgan g`oyani mumkin qadarmukamallashtirish va rivojlantirish mumkin;

muammo echimidan g`oyalar ham qo`llab-quvvatlanadi;

barcha g`oyalarning asosiy mavzulari (farazlari) yozib olinadi;

“hujum” vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;

savollarga qisqacha (asoslanmagan) javoblar berish ko`zda tutiladi.

Vazifasi. “Aqliy hujum” qiyin vaziyatdan qutulish choralarini topishga, muammoni chegarasini kengatirishga, fikrlar xilma-xilligiga erishishga va tafakkur doirasini kengaytirishga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni echish jarayonida ijodiy hamkorlik kuchayib, guruh (auditoriya) yanada jipslashadi.

Ob`ekti. Qo`llanish maqsadiga ko`ra, bu metod universal hisoblanib, tadqiqotchilikda (yangi muammoni echishga imkon yaratadi), o`qitish jarayonida (o`quv materiallarini tezkor o`zlashtirishga qaratiladi), fikrni mustahkamlashda (o`z-o`zini boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi) asqotadi.

Qo`llanish usuli. «Aqliy hujum» ishtirokchilari muammo bo`yicha mulohazat takliflarni bildirishlari mumkin. Aytilgan fikrlar yozib olinadi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi va ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. «Aqliy hujum» tugagach, eng yaxshi takliflar birlashtirib, muammoni echish uchun zarurlari tanlanadi.

«Ajurli arra» usuli

«Ajurli arra» metodi tezilish jihatidan quyidagilarni o`z ichiga oladi:

1. Topshiriqni bo`lish: topshiriq va matnli materiallar bir nechta asosiy qismlarga bo`linadi.
2. Birlamchi guruhlar: gurux a`zolari mavzuni olgach, ekspert hisoblanadi.
3. Ekspert guruxlari: mavzuga oid o`quv topshiriqlari bo`lgan talabalar uni muhokama qilish, bajarish uchun ekspert guruxiga birlashadi.
4. Birlamchi guruhlar: talabalar o`z birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruhlarda o`rganganlarini o`qitishadi.

«Munozara» usuli

Bu metod yordamida o`quvchi-talabalarga ma`lum mavzu bo`yicha axborot etkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni talabalar «shturm» qiladilar, natijada, unga oid ma`lumotni atroflicha o`rganiladi.

Munozarani o`tkazish metodikasi

1. Munozara olib boruvchi – boshlovchi (o`qituvchi) mavzuni tanlab, ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga «Aqliy hujum» topshirig`i qoidalarini tushuntiradi:

«hujum»dan maqsad – muammo echimiga oid variantlarni ko`proq taklif etish;

o`z bilimingizni umumlashtirib, e`tiborni muammo echimiga qaratib, fikrlar bildiring. Bildirilgan g`oyalar umumiy fikrga zid bo`lsa-da, hech bir rad etilmaydi;

boshqa ishtirokchilar g`oyalarini hamqo`llab-quvvatlang;

taklif etilganlarni baholash bilan keyinroq shug`ullanasiz.

3. Boshlovchi kotib tayinlaydi va u aytilgan barcha g`oyalarni yozib boradi. Muhokama vaqtida so`zga chiquvchilar aniqlanib, munozarada barcha ishtirokchilar qatnashadi, o`z fikrlarini ifodalash imkoni beriladi. Agar biror kishi tomonidan uni o`tkazish qoidalarini buzilsa, boshlovchi uni xolisona hal qiladi. Birinchi bosqich yangi g`oyalar paydo bo`lguncha davom etaveradi.

4. Boshlovchi ishtirokchilarining tanqidiy tafakkuri «charxlanishi» uchun qisqacha tanaffus e`lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. Ishtirokchilar guruhlariga bo`linib, birinchi bosqichda bildirilgan g`oyalar mustahkamlanadi. G`oyalar guruh bo`yicha birlashtirilib, ular tahlil qilinadi, natijada o`rtaga qo`yilgan muammoning echimiga oid bo`lgan fikrlargina ajratib olinadi.

Boshlovchi munozaraga yakun yasaydi.

«O`z o`rningni top» usuli

Agar auditoriyada muayyan mavzu bo`yicha tortishuvlar vujudga kelsa, mazkur metod yordamida muammo echimi aniqlanadi. Undan asosan darsning kirish qismida foydalanishadi, o`tilayotgan mavzu turli yondashuvlar mavjudligi aytiladi. Bir tomondan. Ikkinchidan, o`quvchi-talabalar fikrini bayon qilishi, o`zgartirishga imkon tug`iladi. Nihoyat, dars so`nggida o`qituvchi mavzuni o`zlashtirish darajasini baholaydi.

1. Auditoriyaning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osiladi. Ularning biriga “roziman”, boshqasiga “rozi emasman”, degan so`zlar yoziladi. Plakatlarda ba`zan mavzuga oid savollar bo`yicha qarama-qarshi fikrlar ham yozilishi mumkin. Masalan: “anjir gullaydi va meva tugadi” yoki “anjir gullamasdan meva tugadi”.

2. Darsni tashkil etish qoidalarini muhokama qilinadi.

3. O`quvchi-talabalarga o`rganilayotgan muammo yuzasidan o`z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish taklif etiladi.

4. O`quvchi-talabalardan o`z qarashlarini asoslash so`raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o`tish ruxsat etiladi va shu tariqa o`quvchi-talabalarining hammasi jalb etiladi.

5. Muammo bo'yicha fikrlar bildirilgach, o'quvchi-talabalar ichida munozara davomida o'z nuqtai nazarini o'zgartirishlari yoki boshqa guruhga o'tishlari mumkin. Bunday hollarda buning sababini asoslashlari kerak.

6. Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan talabalarni aniqlanadi.

“Kichik guruhlarda ishlash”

Kichik guruxlarda ishlash o'quvchi-talabaning faolligini oshiradi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan o'rganish imkoni tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

Qo'llash usuli

1. Faoliyatni tanlash. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada o'quvchi-talabalar uni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2. Zaruriy asos yaratish. O'quvchi-talabalar kichik guruhda qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha etarli bilim, ko'nikmaga ega bo'lishlari kerak.

3. Guruhni shakllantirish. Odatda, har bir guruhda 3-5 talaba bo'ladi (ba'zan, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Agar guruhda ishlash ma'lum yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, 2-3 kishilik guruh tuzilgani ma'qul. Guruh tarkibi masalaning muhimligi, auditoriyadagi o'quvchi talabalar soni, ularning bir-biri bilan o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, “getrogen” guruh tashkil etishdir. (jinsi, o'zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida).guruhda ishlash talabalar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga asoslanadi. (Misol uchun, bir o'quvchi-talaba munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o'taydi va hokazo). Auditoriyani guruhlarga ajratish, taklif yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

4. Aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish. Talabalarga faoliyatni bajarish uchun ixcham tarzda aniq tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarning ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli material va axborot bilan ta'minlanadi. Talabalar ish boshlashlari uchun vazifalarini tushunib etganligi tekshiriladi.

5. Qo'llab quvvatlash va yo'naltirish. O'quvchi guruhlar to'g'ri ishlayotganligini qayd etadi, ularga zarurat tug'lsa yordam beradi, guruhlarga tazyiq o'tkazilmaydi.

6. Muhokama qilish va baholash. Guruhlarda ish yakunlangach, uning natijalari bo'yicha axborot beriladi. Buning uchun har bir guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat tug'lsa, faoliyat natijalari bo'yicha fikrlarni o'qituvchi yozib boradi. Muhimi, guruh echimini asoslanishini aniqlashtirib olishdir. Agar vaqt etarli bo'lsa, muayyan fikrni asoslashda guruhlar bir-biriga savol berishlari mumkin, uning natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

“Menyu” usuli

Yakka tartibda yoki kichik guruhlar bilan ishlashni xoxlagan o'qituvchiga “Menyu” metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda kichik guruh (talab)ga aniq topshiriq beriladi. Misol uchun, “Milliy mafkuraning asosiy g'oyalari” o'qituvchi har bir guruh uchun alohida topshiriq tayyorlaydi:

Vatan ravnaqi

Yurt tinchligi

Xalq farovonligi

Komil inson

Ijtimoiy hamkorlik

Millatlararo totuvlik

Dinlararo bag'rikenglik

Har bir guruh topshiriq oladi va 3 minut davomida muhokama qilishadi, so'ngra guruh vakili o'qituvchi stoliga kelib, tayyor “Menyu”ni olib qaytadi. Bu uzun qirg'ilgan qog'oz – “tillar” bo'lib, ularda xilma-xil huquq asoslari bayon qilingan. Guruh vakili “tillar”dan birini tanlab oladi va o'z guruhiga qaytadi. Boshqa o'quvchi-talaba ham shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yig'ilguncha bu holat davom etadi. 10 minut davomida topshiriq muhokama qilinadi va rasmiylashtiriladi. Bu metoda javoblar og'zaki bo'lishi mumkin. Boshqa guruh

vakillari savollar berishadi, o`qituvchi esa guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab boradi.

“Debatlar” usuli

“Debatlar” asosida darsni tashkil etishdan asosiy maqsad muammo echimini topishda talaba o`z yondashuvining to`g`riligiga o`zgalarni ishontirishdir. O`z fikrlarini aniq va lo`nda bayon etish, buning uchun to`g`ri dalil va xulosa topish ko`nikmasini shakllantirishda “debatlar” samarali metod hisoblanadi.

Metodik tavsiyalar:

“Debatlar” mavzuni rezolyutsiya shaklida ifodalashi kerak. Ma`lumki, rezolyutsiya har doim mavjud holatni o`zgartirishni talab etadi. Misol uchun, “Qabul qilingan: O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o`lim jazosini bekor qildi”.

Mashg`ulotga mahalliy mutaxassislardan (olim, vrach, muhandis, ijtimoiy arbob va boshqa) biri taklif etiladi. Debatda talabalar ikki guruhga ajratiladi: rezolyutsiyani qo`llab-quvvatlovchilar va ularga qarshi chiqaruvchilar. Gurux sardori reglamentga rioya qilish kuzatuvchi-yordamchi tayinlaydi.

“Konstruktiv argumentlar” 3-5 holatga asoslangan; mantiqiy ifodalangan va dililiy materiallar bilan mustahkamlangan argumentlar tayyorlash uchun talabalarga etarlicha vaqt beriladi. Ularga muammoning mohiyatini anglash va o`z fikrlarini mustahkamlash uchun mantiqiy argumentlar tayyorlashda o`qituvchi yordam berishi kerak. Shu bilan birga, talabalar qarshi tomon bildirajak fikrlarni taxmin qilishlari va oldindan uni inkor etishga ham tayyorgarlik ko`rishlari lozim.

Talabalarni shunday dalil-isbot topish ko`nikmasiga o`rgatish kerakki, bildirilgan fikrni qarshi tomonning muhokama qilishiga o`rin qolmasin. Shundagina talabalar tengdoshlarining qarashlarini hurmat qilishga yoki o`z bilimi auditoriyadoshining bilimi oldida kam ekanligini tan olishga o`rganadi, eng asosiysi, ularda erkin fikr yuritish ko`nikmalari shakllanadi.

Insert jadvali

V + - ?

“INSeRT” jadvali Mustaqil o`qish vaqtida olgan ma`lumotlarni, eshitgan ma`ruzalarni tizimlashtirishni ta`minlaydi; olingan ma`lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o`zlashtirgan ma`lumotlarni bog`lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. O`quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi. Grafik tashkil etuvchining turi, ahamiyati va xususiyatlari Insert jadvalini to`ldirish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida o`zlari O`qish jarayonida olingan ma`lumotlarni alohida o`zlari tizimlashtiradilar - jadval ustunlariga “kiritadilar” matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq

“V”- men bilgan ma`lumotlarga mos;

“-“ - men bilgan ma`lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma`lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma`lumotni aniqlash, to`ldirish talab etiladi.

VENNA DIAGRAMMASI

VeNNA DIAGRAMMASI – 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo`yish uchun qo`llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi. Diagramma Venna tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik gurhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) To`ldiradilar Juftliklarga birlashadilar, o`zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to`ldiradilar Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki/uch doiralar uchun umumiy bo`lgan, ma`lumotlar ro`yxatini tuzadi.

«Baliq skeleti» chizmasi

1) Aylana yoki to`g`ri to`rtburchak shakllardan foydalanishni o`zingiz tanlaysiz.

2) Chizmaning ko`rinishini - mulohazalar zanjirinito`g`ri chiziqlimi, to`g`ri chiziqli emasligini o`zingiz tanlaysiz.

3) Yo`nalish ko`rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo`lgan yo`nalishingizni belgilaydi.

Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik guruhlarda yuqori “suyagida” kichik muammoni ifodalaydi, pastda esa, ushbu kichik muammolar mavjudligini tasdiqlovchi dalillar yoziladi. Kichik guruhlarga birlashadilar, taqqoslaydilar, o`zlarining chizmlarini to`ldiradilar. Umumiy chizmaga keltiradilar. “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni echish imkonini beradi.

«Piramida» chizmasi

“PIRAMIDA” chizmasi - G`oyalarni quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich taqdim etish vositasi.

Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida/kichik guruhlarda chizma tuzadilar: avval asosiy muammoni (g`oya, vazifa) yozadilar, so`ngra kichik muammolarni, ularning har biridan esa, kichik muammoni batafsil ko`rib chiqish uchun “kichik shoxchalarni” chiqaradilar. Shunga asosan har bir g`oyalar rivojlanishini batafsil kuzatish mumkin. Ish natijalarining taqdimoti.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar qudratli targ`ibot tizimiga ega bo`lishga intilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Masalan, o`z faoliyatining targ`ibotiga AQSh hukumati yiliga 2,5 milliard dollar sarflashi bejiz bo`lmasa kerak. Fransiya ham o`z siyosatini aholiga tushuntirish ishlariga yiliga 100 million frankni bekorga sarflamayotgandir. Bu ma'lumotlar targ`ibot nafaqat dinda, biznesda muhimligini, balki siyosatda ham, ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ham muhim ahamiyat kasb etishini ko`rsatadi. Demak, rivojlangan demokratik davlatlar ham mafkuraviy faoliyatdan sira voz kechmagan.

1.2. Targ'ibot samaradorligini taminlovchi omillar.

Milliy g'oya targ'iboti va tashviqoti tushunchasi haqida to'xtalishdan avval "targ'ibot" va "tashviqot" tushunchalarining o'zagiga e'tiborni qaratish zarur. "Targ'ibot" tushunchasining o'zagini "rahbat" so'zi tashkil etgani bois ham, u insonni biror harakatga rahbatlantirishni nazarda tutadi. "Tashviqot" tushunchasining o'zagi esa "shavq" so'zidan olingan bo'lib, u kishida biror narsaga shavq uyg'otishga yo'naltirilgan. Targ'ibot insonning ongi va qalbini egallashga qaratilgan. Targ'ibotchilarni shuning uchun ham "inson qalbining sozlovchilari" deb ataydilar. Demak, targ'ibot-tashviqotdan mahsad - faqat bilim orttirish emas, balki kishini biror harakatga undashdan iborat.

Milliy g'oyaning targ'ibot-tashviqotini tashkil etishda quyidagi tashkiliy tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq: - keng hamrovlilik, bunda jamiyatning barcha a'zolariga g'oyalar xilma-xilligi asosida mafkurani singdirish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi. Natijada, jamiyatning barcha bo'g'inlari mafkuraviy ta'sir doirasida qamrab olinadi; - umumiy mahsadga yo'naltirilganlik; - faol insonni tarbiyalash va inson salohiyatini yuzaga chiqarish mafkuraning bosh mahsadi qilib olinadi;

- uzluksizlik - milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotining makonda va zamonda doimiyligini, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi. Uzluksizlik tamoyili milliy g'oyani xalq ongiga singdirish uchun mamlakatda muayyan mafkuraviy maydon yaratishni taqozo qiladi. Bu maydondagi har bir holat va harakat, jumladan, ta'lim tizimidagi o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, sinf va auditoriyalar, ko'rgazmali qurollar milliy g'oyaga uyg'un bo'lishini taqozo etadi.

- ketma-ketlik - har bir bosqich uchun istalgan qadriyatlarni singdirish maqsadida mafkuraviy tashviqot rejalashtiriladi;

- bosqichma-bosqichlik - milliy mafkurani tarqib qilishning ruhiy jihatlari bilan bog'liq bo'lib, ham tarqib qiluvchi, ham qabul qiluvchining muayyan tayyorgarlik bosqichlaridan o'tishini taqozo qiladi.

Aytaylik, boshlang'ich sinf o'quvchisiga milliy mafkuraning falsafiy va etnik ildizlari to'g'risida gapirish noo'rin bo'lishdan tashqari mutlaqo samarasiz hamdir. Shuning uchun boqchada, boshlang'ich sinflarda, to'liqsiz oi'rta maktabda, yuqori sinflar, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlari va mehnat jamoalarida mafkuraviy ish tinglovchi va o'quvchilarning yoshi, bilimi, ma'lumoti kabi jihatlari hisobga olib aniq belgilangan reja asosida olib borilishi kerak;

- me'yoriylik – aksil targ'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishga olib keladigan balandparvozlik, rasmiyatchilik va takrorlanishlarga yo'l qo'ymaydi;

- shaxsiy ibrat - mafkuramizni tarqib qilishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan muhim omillardan biri. Maktab muallimi darsda o'quvchilarga millat manfaatlari, orzu-umidlari, intilishlari to'g'risida balandparvoz gaplarni gapirsa-yu, o'zi hayotda shu manfaatlarga zid ishlarni qilsa, bu targ'ibotning samarasi nolga teng bo'ladi. Mamlakat va millat ravnaqi to'g'risida og'iz ko'pirtirib gapiradigan boshliq bo'shab qolgan lavozimga layoqatli va munosib xodim qolib, o'ziga qarashli, Lekin, bu o'ringa nomunosib odamni tiqishtirsa, u millatning yuziga oyoq qo'ygan bo'ladi va uning milliy mafkurani aksil targ'ibot qilgan bo'ladi. Shuning uchun, milliy g'oyani aholi ongiga singdirishda targ'ibotchilar faoliyatida ish bilan so'z birligini ta'minlash, ayniqsa, rahbar xodimlarning shaxsiy ibrat ko'rsatish tamoyiliga amal qilishi muvaffaqiyatni ta'minlaydigan eng muhim omillardan biridir. Korxona, tashkilot, muassasa rahbari, ular davlat sektori yoki xususiy sektorga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar o'z jamoasidagi ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarga mas'ul bo'lishi kerak;

- ilg'or targ'ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanish - bunda mafkuraviy targ'ibotga insonlarni mohirona boshqarish usuli sifatida qaraladi. Milliy g'oyaning targ'iboti qotib qolgan narsa emas, faol jarayondir. Shuning uchun uni qadimdan qolgan va'z aytish va ma'ruza o'qish kabi targ'ibot shakllari yordami bilangina keng xalq ommasi ongiga singdirib bo'lmaydi. Maqsadga erishish

uchun targ'ibotning faol shakllaridan, zamonaviy texnologiyalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Yoshlar orasida targ'ibot olib borilganda munozara, bag's, davra suhbatlari kabi shakllardan oqilona foydalanilsa maqsadga tezroq va to'laroq erishish mumkin. Yoshlarning fiziologik va ruhiy xususiyatlari va'z va ma'ruzalarni emas, ko'proq interfaol usullar va sanab o'tilgan targ'ibot shakllaridan foydalanishni taqozo qiladi.

II. Bob O'zbekistonda mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishning mazmun mohiyati.

2.1. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan isloxlarga dunyo hamjamiyatining qiziqishini ortib borishi.

Texnologiyalar asri deb atalayotgan XXI asrda ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini misli ko'rilmagan darajada o'stirib yubordi. Biroq yangi texnologiyalar faqat sanoat va qishloq xo'jaligida qo'llanilmayapti, balki ma'naviy, mafkuraviy jarayonlarda ham o'z samarasini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizdagi mafkuraviy jarayonlarga xam shu nuqtai nazardan yondoshish milliy g'oyani targ'ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko'rsatadi. Milliy g'oyani xalq qalbi va ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me'yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi. Ularning muhimligi shunda ko'rinadiki, masalan, targ'ibotda me'yorning buzilishi, milliy mafkura to'g'risida me'yordan ortiq gapiraverish, me'yorni bilmaslik teskari samara berishi mumkin. Targ'ibot texnologiyasi milliy g'oya va milliy mafkura mazmun-mohiyatiga mos bo'lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

O'zbekistonda mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

"belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o'tkazilishini ta'minlash;

"milliy g'oya targ'ibotining sifatini muntazam oshirib borish;

"davr talablaridan kilib chiqqan holda mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo'llarini izlash;

" eski uslublarning mutlaqlashtirilishiga, andozalashtirishga yo'l qo'ymaslik;

"mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish;

"mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatchilik ko'rinishlariga barham berish;

"mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish. O'zbekiston o'z istiqboliga erishganidan so'ng mustaqil ravishda tashqi siyosat va faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi. Istiqbolning dastlabki davrlaridanoq mustaqil O'zbekiston rahbariyati. Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan davlatlar hamda jahon hamjamiyati bilan aloqalarni o'rnatishga kirishdi. Xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish borasida ko'plab amaliy tadbirlar amalga oshirildi. Respublika tashqi siyosatiga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo'li asos qilib olindi. Buning natijasida O'zbekistonning dunyo miqyosidagi obro'si oshib, jahonda uni tez sur'atlar bilan tan olinishi ta'minlandi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini 165 ta davlat tan oldi. 1991 yil 26 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining birinchi diplomatik aloqalari yo'lga qo'yildi. Ushbu kunda mustaqil O'zbekiston bilan Avstraliya o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1992 yildan boshlab O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiya sohasidagi faoliyati yanada kengayib birin ketin Xitoy, Yaponiya, Angliya, AQSh, Frantsiya, Turkiya, Germaniya singari jahonning rivojlangan etakchi davlatlari bilan diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalar yo'lga qo'yildi. Ushbu davlatlar bilan hamkorlik aloqalarimiz hozirda yuqori darajaga ko'tarildi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahonning 142 davlat bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi. Toshkentda 43 mamlakatning elchixonalari, 3 ta savdo vakolatxonasi (Vengriya, Belgiya, AQSh savdo palatasi), 10 ta xalqaro tashkilotning vakolatxonasi ishlab turibdi. Mamlakatimizda 7 ta faxriy konsullar ishlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi Favqulodda

va Muxtor Elchilarining soni 38 taga etgan bo'lsa, elchixonalarining soni esa 27 tani tashkil etadi. Shuningdek, 11 ta bosh konsulxonasi mavjud. Respublikada 88 ta xorijiy mamlakat vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan. O'zbekiston 41 ta nufuzli xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarining teng huquqli a'zosi. Hozirda ulardan beshtasining vakolatxonasi respublikada faoliyat ko'rsatmoqda. Mustaqil O'zbekistonning xalqaro obro'si jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzining ko'tarilishida uning BMT (2.03.1992), eXHT (30.01.1992) kabi eng obro'li ta'sirga ega bo'lgan xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirishi ham muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillarning xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi muhimdir. Mamlakatimiz mana shu muhim sohani o'zlashtira borib, o'z mustaqilligini uning eng jiddiy yo'nalishi bo'lgan iqtisodiyotida mustahkamlanmoqda. Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bilan yaqindan va mustaqil aloqalar o'z samarasini bermoqda. O'zbekistonning chet davlatlar, yirik-yirik xorijiy korporatsiyalari, kompaniyalari, nufuzli banklari bilan turli sohalarda aloqalar bog'lashi va bu jarayonning kengayib borishida respublikada yangidan tashkil etilgan Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki singari davlat organlari bo'g'inlari alohida rol o'ynamoqda.

Ma'lumki, u yoki bu davlatning umumjahon tizimida egallab turgan mavqeini belgilash uchun ko'p yillar mobaynida ishlatib kelingan bir necha mezonlarni bilamiz. Ular asosan, aholining soni, armiyaning soni, geografik joylashishi, foydalanib kelinayotgan infrastruktura va aloqa vositalarining darajasidan iborat. XXI asr bo'sag'asiga kelib olamda shunchalik ulkan siljishlar sodir bo'ldiki, endilikda yuqorida keltirilgan to'rtta mezon davlatning kuch-qudratini belgilashda, birdan-bir bosh mezon bo'lishi mumkin bo'lmay qoldi. Bu masalaning bir jihati.

Masalaning ikkinchi muhim jihati shundaki, musataqil davlat sifatida 23 yillik davrni bosib o'tgan O'zbekistonni bugun uning mavjud imkoniyatlaridan tashqari,

mana shu imkoniyatlar doirasini yana kengaytirish, ya'ni ma'rifiy davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'z o'rnini va obro'siga ega bo'lish, masalasi ham qiziqtirishi tabiiy. Gap mavjud milliy salohiyatni jahonda o'zi uchun qulay makon yaratish orqali yanada oshirishga qaratilgan konkret faoliyat to'g'risida bormoqda. Bugunning paradoksi shundaki, dunyo har doimgidan ko'ra murakkab va tahdidlidir. Imkoniyatlarning ozgina bo'lsa ham kengayishiga ko'maklashishga tayyor sherikni topishning o'zi qiyin. Shunday murakkab sharoitda dunyoda o'z o'rnini belgilash yo'lida bekamu ko'st ish olib borish mumkin emas. Ayniqsa, mustaqillikning dastlabki paytlarida O'zbekiston ham bu tabiiy jarayondan chetda qolmadi. Xalqaro tizimda o'zining o'rnini aniq belgilashda yangilash hollari ham sodir bo'ldi. Ammo keyingi taraqqiyot tajribasi O'zbekiston uchun bu borada ulkan saboq bo'ldiki, bundan o'z manfaatlari va xavfsizligini ta'minlash borasida zarur xulosalar chiqarishga erisha oldi.

1991 yil 31 avgust. O'zbekiston mustaqilligi rasman e'lon qilingan ushbu kun mamlakatimiz uchun yangi tarixiy palla – suveren rivojlanish davrini boshlab berdi. Bu esa, o'z navbatida, yurtimizning salohiyatini namoyish qilish hamda cheksiz imkoniyatlarini e'tirof etishga keng yo'l ochdi.

O'zbekiston 1992 yil 2 martda BMTga a'zo bo'ldi va ushbu nufuzli xalqaro tashkilot bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Respublikamizning xalqaro va mintaqaviy muammolarni muhokama qilish hamda echishda faol ishtirok etishi uchun katta imkoniyatlar ochildi. Albatta, 20 yil – tarix uchun juda qisqa muddat. Biroq bugungi keskin o'zgarishlar zamonida, ya'ni jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotini tubdan yangilash zarurati butun bo'y-basti bilan namoyon bo'lib turgan bir paytda, bu yillar mamlakatimiz bosib o'tgan yo'lga nazar tashlash hamda rivojlanishning uzoq istiqbollari mo'ljallangan muhim hayotiy vazifalarni belgilab olish uchun etarli muddatdir.

Yer yuzida tinchlikni saqlash, terrorizmga qarshi kurashish, inson huquqlarini himoya qilish, atrof-muhitni himoyalash kabi umumbashariy muammolarni hal etishda ushbu xalqaro tashkilotning o'rnini katta. BMT XXI asrda asosiy e'tiborini uchta ustuvor yo'nalish – qashshoqlikka barham berish, dunyoda kechayotgan

nizolarni to'xtatish, demokratiyani yanada jadallashtirishga qaratgan. Umuman, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqlarning teng huquqliligini hamda o'z taqdirini o'zi belgilashi printsipini ro'yobga chiqarish, barcha millatlar o'rtasida do'stona munosabatni rivojlantirish, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etish mazkur tashkilotning bosh maqsadidir.

Hozirgi kunga kelib BMT dunyodagi eng yirik xalqaro tashkilotga aylandi. U jahonning 190 dan ortiq davlatini birlashtirib, salkam etmish yillik tarixi davomida qator xalqaro muammolarni hal etishga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Tinchlikni o'rnatish, harbiy mojarolarning oldini olish, rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy yordam ko'rsatish, tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan davlatlarga ko'maklashish, jahon madaniyatini rivojlantirish kabi xayrli ishlar shular jumlasidandir.

Xalqaro huquq ijodkori sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti jahon xalqlari takdiriga oid ko'plab hujjatlarni ishlab chiqqan. Bu tashkilot dunyo ahamiyatiga molik ko'pgina tadbirlarning ham tashabbuskori hisoblanadi. Jumladan, xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning muhim omili – qurolsizlanish masalasiga BMT o'z faoliyatining dastlabki kunlaridanoq katta ahamiyat berib kelmoqda.

1960 yil 14 dekabrda mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berilishi to'g'risidagi deklaratsiyaning qabul qilinishi Osiyo, Afrika va Amerikadagi bir qator davlatlarda ozodlik jarayonlarini tezlashtirib yubordi. BMT tashkil topgan paytda er yuzi aholisining uchdan bir qismi mustamlaka istibdodida edi. Tashkilotning sa'y-harakatlari tufayli endilikda 100 ga yaqin davlat mustaqillikka erishdi. XX asrning ikkinchi yarmida insoniyat global miqyosdagi muammolarga duch keldi. Bu erda gap tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni qamrab olgan jarayonlar va hodisalar haqida bormoqda.

2.2. Yoshlarning axloqiy immunitetini shakllantirishda targ'ibot texnologiyalarning ro'li va ahamiyati.

O'zbekistonning strategik maqsadlari Islom Karimovning qator asarlarida, jumladan, "O'zbekiston XXI asr bo'saxasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" hamda "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarlarida belgilab berilgan.

Shu maqsadlar sari insonlarni safarbar qilish ularni g'oyalar shaklida singdirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning taqdiri, so'zsiz, har bir fuqaro, aniqroqi insonning faolligiga bog'liqdir. Bu esa islohotlarning mohiyatini xalqa tushuntirishni talab qiladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda mafkuraning targ'iboti "hukumat siyosatining tashviqoti" ko'rinishida amalga oshiriladi. Davlatning bosh islohotchi ekanligi ham O'zbekiston hukumatining siyosatini maxsus targ'ib qilishni talab etadi. Bunday targ'ibot islohotlarning "mafkuraviy asosda ta'minlash"ga xizmat qiladi. O'zbekiston hayotidagi o'zgarishlar insonlar ongida ham katta o'zgarishlar qilishni talab etadi. O'tish davrida har qanday davlat yangi zamon kishisini tarbiyalash haqida jiddiy qayg'urishi tabiiy. Demak, O'zbekistonda ham "komil inson" g'oyasida e'tirof etilgan shaxs mos sifatlarini fuqarolarda qaror toptirish vazifasi ko'ndalang turibdi. "Fuqarolik ahloqi"ni bunday tarbiyalash mafkuraviy siyosatning negizini tashkil etadi. O'zbekistonda yosh avlodni yangicha fikrlashga va tafakkurini rivojlantirishga, siyosiy faolligini yo'naltirishga, ularni mustaqillik g'oyalariga sodiq qilib tarbiyalash vazifalari bosqichma-bosqich ravishda amalga oshirilmoqda. Globallashuv jarayonida siyosiy va psixologik ko'rsatmalarning butunlay o'zgarishi yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlashning dolzarbligini ko'rsatadi. Xavfni sezish va unga qarshi kurashish tuzilmalari - shaxsning o'zini-o'zi anglash jarayonida shakllanadi. Yoshlarda shaxsiy fikr, mulohaza, dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tahliliy va tanqidiy fikrlash paydo

bo'ladi. Yoshlar o'zining siyosiy konsepsiyasini mustaqil ravishda to'g'ri shakllantirishda, siyosiy jarayonlarni aniq qamray olishida va tahlil qila olishida, mohiyatini tushunishida - harakatlanish konsepsiyasi shakllanadi. Hozirgi vaqtda xavfsizlikni ta'mishlashni texnologik va texnokratik uslubiyot asosida tashkil etish-davr talabidir. Yoshlarning axborot xavfsizligini ta'minlash vazifasi, o'z navbatida jarayonni tizimlashni, natijani avvaldan kafolatlashni, jarayonga istalgan paytda tuzatishlar kiritish imkoniyati bo'lishini taqozo etadi. Yoshlarning informasion-psixologik immunitetini shakllantirish jarayonni texnologiyalar asosida tizimlashtirish, o'z navbatida bir qancha ishlarni ixchamlashtirish, umumlashtirish va muvofiqlashtirish kabi qo'yida keltirilgan tashkiliy ishlarni bajarishni talab qiladi: Mavjud siyosiy jarayonlarning mohiyatini anglash,

- immunitetni shakllantirishda foydalanish;

- Immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qidirish, yig'ish va qayta ishlash;

- Informasion-psixologik immunitetni shakllantirishga tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

- Muammolarni sezish, aniqlash, dolzarbligi bo'yicha differensiallash;

- Immunitetning rivojlanish tamoyillarini anglash, qabul qilish;

- Tashqi va ichki vaziyatni strategik ko'p faktorli analiz qilish;

- Axborot, moliyaviy, tashkiliy-texnik resurslarning chegaralanishini aniqlash, resurslarni boyitish ishlarini amalga oshirish;

- Xalqaro maydondagi voqealarning rivojlanishini kuzatish, tahlil va siyosiy bashorat qilish;

- Geopolitik manfaatga erishishning strategiya va taktikasini shakllantirish, tashqaridan kirib kelayotgan xavf-xatarlarni klassifikasiyalash, ularni neytrallashtirish hamda dezinfeksiyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish;

- Ichki axborot muhitining informasion-psixologik immunitetni shakllantirishning texnologiyalarini, metodlari va usullarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish;

- Immunitetni ta'minlash ishlarini amalga oshirishning alternativ variantlarini ishlab chiqish;
- U yoki bu alternativ variantlarni tadbiq etishda yuzaga keladigan holatlar hamda vaziyatlarni bashorat qilish;
- Amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorlik mezonlarini ishlab chiqish, bajarilayotgan har bir ishni baholash;
- Davlatning ichki axborot muhitini kuchaytirish, tashqi xavflarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirish, axborot tahdidlari va xavf-xatarlariga qarshi kurashuvchanlikni ta'minlash;
- Immunitetni shakllantirishning eng maqul variantlarini ishlab chiqish va tadbiq etish;
- Yoshlarda qaror qabul qilishga ko'rsatiladigan ta'sirni tahlil qilish;
- Yoshlarning o'zi qabul qilgan qarorlarini o'zi korreksiya qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- Yoshlarning o'zini-o'zi nazorat va tahlil qilishlarini shakllantirish.

Shuningdek, yoshlarga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik omillarni to'liq ishlab chiqish ham zarurdir. Bu esa yuzaga keladigan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishimkonini berishi lozim.

Hozirgi davrda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun yot mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurashda o'zilishlarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunday sharoitda begona mafkuralarning qo'poruvchi ta'siriga qarshi doimiy va uzluksiz aksil targ'ibotni tashkil etish muhim sanaladi. Chunki bunday nosog'lom mafkuraga nisbatan kurashni olib borish talab etiladi.

O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan Milliy istiqlool g'oyasining asosiy tushunchalari va tamoyillari ishlab chiqildi. O'zbekistonda milliy istiqlool g'oyasining targ'ibot-tashviqoti ana shu asosiy g'oyalar, tushunchalar va tamoyillarga tayangan holda amalga oshirilmoqda.

Mazkur targ'ibot tamoyillari milliy istiqlool g'oyasini inson ongi va qalbiga singdirishning barcha bosqichlari uchun umumiy va bir xil bo'lib, turli

bosqichlarda, turli shakl va vositalardan foydalanganda odamlarning yoshi, kasbi, ma'lumoti kabi xususiyatlari xisobga olinadi. Targ'ibot olib borishda sanab o'tilgan tamoyillarning muayyan auditoriya xususiyatlariga mosligini ta'minlash targ'ibot samaradorligini ta'minlaydigan eng muhim omildir.

G'oyaning insoniyat evolyusiyasidagi o'rni va ahamiyati doimiy ravishda jamiyatning intellektual salohiyatli a'zolari diqqat-e'tiborida bo'lgan: Buni dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralar asoschisi bo'lgan, tarixning turli davrlarida yashagan Suqrot, Konfusiylar; Alisher Navoiy, Maxatma Gandi kabi mutafakkirlar ilmiy asarlaridagi ilmiy nazariyalar misolida ko'rish mumkin. Targ'ib qilinayotgan g'oyalarning inson ongida axborot, ma'lumot tarzida o'rnashishi kifoya qilmaydi, ular insonning yurak-yuragiga yetib borganidagina ular inson qalbiga chuqur o'rnashadi. Buning uchun esa auditoriya targ'ibotchining milliy g'oyaga chuqur ishonchi va qat'iyatini xis qilishi kirak. Lekin Targ'ibotda g'oyalarga e'tiborni tortish bilan ham qanoatlanish mumkin emas. Chunki, e'tiborni jalb qilish – targ'ibotning birinchi bosqichi, xolos.

Targ'ibotning keyingi bosqichi g'oyani to'g'ri va atroflicha tushuntirishni, mafkura bilan bog'liq barcha savollarga javob topib berishni talab qiladi. Chunki milliy g'oyani tushunish - unga ishonish demakdir. Ana shu yerda bir savolga duch kelamiz: nima ko'proq ishonch uyg'otadi: jiddiy dalillar bilan asoslangan axborotmi yoki hissiyotlarni uyg'otuvchi ma'ruzami? Targ'ibot davomida insonning xislariga, qalbiga murojaat qilish katta samara beradi, albatta. Lekin xolislik, ishonchli dalillar, e'tiroz uyg'otmaydigan hayotiy ma'lumotlarning keltirilishi bu g'oyalarni xayotga tatbiq qilishdan hammamiz manfaatdor ekanligimiz qaqidagi fikrni uyg'otadi. Targ'ibot jarayoni shu yerda tugaydi, deb o'ylaydiganlar katta xato qiladilar. Zero, mafkura yangi ishlarga ilhomlantiradi, harakatga undaydi. harakatsiz mafkura esa safsatabozlikdan bo'lak narsa emas. Demak, insonlar milliy mafkuradan o'rin olgan g'oyalarga mos harakat qila boshlaganlaridagina milliy g'oya xalqning e'tiqodiga aylanganligi haqida xulosa qilish mumkin. Yoshlarni yot ta'sirlardan asrash, ularning turli oqimlar domiga tushib qolmasligi uchun, avvalo milliy g'oya va uning keng tarzdagi targ'ibot va

tashvivot ishlarini tashkil qilish lozim. Yoshlarning orasida milliy g'oya targ'iboti ishlarini tashkil etishning samarali usullaridan biri uni ta'lim tizimi bilan birgalikda amalga oshirish hisoblandi. Chunki bolaning jamiyat hayotidan voqif bo'lishi avvalo, maktablardan boshlanadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida, turli mavzularga bolalarni qiziqtirish, shu mavzuga nisbatan ularni fikrlarini ochiq ravishda bildirib olishlari bilan tashviqot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bunday zamonaviy interfaol usullardan keng qo'llanilayotganlaridan biri "Ajurli arra" bolib, bunda bir mavzuga nisbatan ikki guruhning turlicha erkin fikri bildiriladi va aynan tog'ri deb beligilangan javobning aniq isboti beriladi. Bunda avvalo, mavzuning mohiyati to'la ravishda ochiladi va guruhning barcha a'zosi to'la ishtiroki ta'minlanadi. Yana shunday usullardan biri-"Klaster" usuli avvalo munoazara usuli asosida mavzuning tahlili tushuniladi va u milliy g'oyaning xususiyatlariga to'la mos keladi, chunki, milliy g'oyaning o'zi fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi.

Globalizasiyaning salbiy ta'sirlari davlatning milliy statusini xavf ostiga qoymoqda, qadriyatlar va an'anaviy madaniyatlarni buzmoqda, hatto oila hayotiga, insonning shaxsiy hayotiga ham kirib kelmoqda.

Yoshlarda axborot xavfsizligini ta'minlovchi omillarga quyidagilar kiradi:

- " **Ta'lim va tarbiyaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi;**
- " **Mehnat bozorini kadrlar bilan ta'minlashdagi davlat siyosati;**
- " **Davlat boshqaruvida yoshlar ishtirokini keng ta'minlanishi; "**

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati yoshlar muammosini bartaraf etishga qaratilganligini kiritish mumkin.

Yoshlarga tegishli muammolarni bosqichma-bosqich hal etilishi, mehnatni tahsirlash mahsulot ishlab chiqarish, mehnat bozorini yengillashtirish muammolarining birin-ketin bartaraf etish natijasida yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligi oshmoqda.

Globalizasiya sharoitida axborot xurujiga qarshi kurashishda, uni bartaraf etishda ta'lim-tarbiya jarayonining omil sifatida orni beqiyos bo'lib, asosiy vositalardan biri sifatida namoyon boladi:

- yoshlarning onggi, tafakkuri, dunyo qarashi shakllanadi hamda shaxsi voyaga yetkaziladi;

- yoshlarga Vatan tuyg'usi, mehr-oqibat, tarixiy xotira, ma'naviyat va ma'rifat singdiriladi;

- yoshlarda xavf-xatarga qarshi kurashish sezgilari va konikmalari shakllantiriladi. Istiqlolning saylovchilari deb baholanayotgan yosh avlodning tarbiyasi, ularning ma'naviy salohiyatini yanada oshirish bugun davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda, mustaqilligimizning asrovchi ma'naviy dastur vazifasini bajaruvchi milliy g'oyani avvalo bilish, uning targ'ibotida barchaning ma'sulligini ta'minlash-davrning ustuvor mahsadlaridan biri hisoblanadi. Bir jamiyatda uning manfaatlari uchun xizmat qiladigan g'oyaning yo'qligi shu davlatning boshqaga qaramligining bosh omili bolsa, g'oya bolsada, ammo uning atrofida hech kim birlashmasa, bu jamiyat undanda ko'proq qaramlikka va "katta oqa"lar mulozamatiga mubtalodir.

O'zbekiston deb atalgan davlatning manfaatlarini o'zida mujassam etgan milliy g'oyani ta'sir doirasini aynan yoshlar orasida oshirishning asosiy omillaridan biri bugun "sovuq urush"lar ta'siri kamayishi bilan paydo bo'layotgan "mafkura poligon"laridan himoyalanih orqali millat hamjihatligiga va taraqqiyotiga erishish bilan bog'liqdir. Bunday kurash maydonida Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, - "g'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan baxsga kirishish, olishish mumkin.

Xulosa

Biz demokratik mamlakatda yashayapmiz. Fan-texnikaning barcha yutuqlaridan foydalanish bizning konstitutsiyaviy huquqimizdir. Lekin har qanday kashfiyotning foydalanish tartibi, madaniyati bo'ladi. U insonlarga manfaat bersagina haqiqiy kashfiyot sanaladi. Internet bu borada olamshumul qulaylik tug'dirdi. Lekin undan noto'g'ri foydalanish bir qancha noxushliklarga olib kelmoq-da. Internet xalqaro o'rgimchak to'ridir. Undan "ma'naviyat", degan antivirussiz foydalanganlar to'rga o'ralashib, nobud bo'lishlari mumkin. Bugun ma'naviyatimizga tahdid qiluvchi viruslar ongimizga internet orqali kirib kelmoqda. Undan turli ma'lumotlar, pornografik surat va filmlarni ko'rish va ko'chirib olish orqali kishilar ongida maishiy buzqlikka moyillik, vahima singari yomon illatlar paydo bo'lmoqda. Bizning doimiy hamrohimiz bo'lgan qo'l telefonlarimizga internet "mahsulotlari"ni joylash orqali yuqoridagi illatlarning keng quloq yoyishiga sharoit yaratilmoqda. Bugun ayrim yoshlarimiz yuz-ko'zida biror o'zgarishsiz har xil ur-yiqitlarni tukini qimirlatmay tomosha qilmoqda. Ularga jirkanish, achinish, rahm-shafqat tuyg'ulari begonalashib bormoqda.

O'zbekiston tanlangan mustaqil taraqqiyot yo'li huquqiy demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishi vazifalarini amalga oshirishda milliy g'oya - insonlarni mushtarak mahsadlar bilan bog'lab turuvchi, ularni yo'naltiruvchi va safarbar etuvchi ma'naviy kuchga ega. Milliy g'oya targ'iboti texnologiyalari ham keng qamrovli bolib, doimo o'zgarib, yangilanib, takomillashib borishi davr talabi hisoblanadi. Milliy g'oya targ'ibotida inson omili hal etuvchi aha miyatga ega. U foydalaniyotgan texnologiyalar, mexanizm, uslub va vositalar tag'ibotning samaradorligiga, milliy g'oyani insonning ishonch va e'tiqodiga aylantirishga ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Dunyoda "mafkuraviy kurash davom etayotgan" sharoitda "targ'ibot texnologiyalari" yovuz kuchlar qo'lidagi "mafkuraviy ta'bid vositasi"ga aylanishi ehtimoli saqlanib kelmoqda. Uning oldini olish uchun zamonaviy

texnologiyalardan milliy g'oya targ'ibotida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy g'oya mahsadlarini, jamiyatdagi fuqarolarning har birining ongida ijtimoiy -ma'naviy ehtiyoj sifatida anglanishi mustaqil taraqqiyotni kafolatlab beradi. O'zligimizni anglashga, asrab-avaylashga xizmat qiladi. Shu ma'noda targ'ibot texnologiyalari ezgulikka xizmat qilishi kerak.

Bugun insoniyatning aql-zakovati bilan fan-texnika sohasida muhim ixtirolar amalga oshirilmoqda. Undan ezgu mahsadlar yo'lida foydalanish o'ziga xos axborot almashinuvini, insoniyat uchun qulay sharoit yaratib beradi. Bu insonning ma'naviy olamini boyishiga, dunyo xalqlarining erishayotgan yutuqlaridan xabardor bo'lishiga, madaniy hamkorlikning rivojlanishiga, mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurilishiga xizmat qiladi.

Ammo, hamma insonlar ham bunday intellektual, ahloqiy va ma'naviy-mafkuraviy ta'sir kuchiga ega bo'lgan targ'ibot texnologiyalaridan ijobiy mahsarlarda foydalana olmayaptilar. Shuning uchun ham inson undan foydalanishda ezgu mahsadli bo'lishi, yomon ahloqiy qadriyatlardan o'zini tiyishi va insonlarni bir-biri bilan bog'lab turadigan ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar, umuminsoniy g'oyalar ham borligini esdan chiqarmasligi lozim. Bu bugungi dunyoni saqlab qoladigan, jamiyatni yovuz va tajavuzkor g'oyalar ta'siridan qutqara oladigan va oxir oqibatda insonni bu dunyoda bir-biri bilan inson sifatida muloqotda bo'lib yashay olishini ta'minlay oladigan yuksak ma'naviy qadriyatlar mavjudligini anglash, unga tayanish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A. «Karimov Istiqlol va ma`naviyat». –Toshkent., «O`zbekiston», 1994y.
2. I.A. Karimov «Bizdan ozod va Obod vatan qolsin». –T. «O`zbekiston», 1994y.
3. I.A. Karimov «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» – Toshkent, O`zbekiston, 1996y.
4. I.A. Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelejak yuq». T., «Sharq», 1998y.
5. I.A. Karimov «Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir». Toshkent. «O`zbekiston» 2000y.
6. I.A. Karimov «Inson manfaatlari ustuvorligini ta`minlash barcha islohat va o`zgarishlarning bosh maqsadi». T. «O`zbekiston» 2008y.
7. I.A. Karimov «Inson manfaatlari, huquq va erkinliklari – eng oliy qadriyat». T. «O`zbekiston» 2005y.
8. I.A. Karimov. O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li. T., «O`zbekiston», 1992
9. I.A. Karimov. Yuksak ma`naviyat - engilmas kuch. T., «Ma`naviyat»-2008
10. I.A. Karimov O`zbekiston Respublikası Oliy majlisi qonunchilik palatasi va senatining 2010 yil 12-noyabrdagi qo`shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqoralik jamiyatni rivojlantirish kontsepsiyasi» mavzusidagi ma`ruzasini o`rganish bo`yicha o`quv uslubiy majmua. Toshkent. «Iqtisodiyot» nashriyoti. 2010y.
11. I.A. Karimov «jamiyatimizni erkinlashtirish, islohatlarni chuqurlashtirish, ma`naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir». Toshkent. «O`zbekiston» 2007y.